Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
60111400 - O‘zbek tili va adabiyoti(kechki) 1-bosqich yo‘nalishi talabalariga 1-semestr uchun
«Adabiyotshunoslik asoslari » fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma

TASDIQLAYMAN
O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i
I.Madatov
2023-yil 14-oktabr

Mavzu raqami	1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo‘ladi	2-QISM "ODDIY SAVOLLAR" deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo‘ladi	3-QISM "MURAKKAB SAVOLLAR" deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, tasniflar kabi savollardan iborat bo'ladi	4-QISM "MURAKKAB SAVOLLAR 2" deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo'ladi	5-QISM "QIYIN SAVOLLAR" deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa ya'ni yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to'liq anglashga yo'naltiradigan savollardan iborat bo'ladi
1	Adabiyotshunoslik fanining predmeti va uning jamiyatdagi ma’rifiy va estetik vazifalari nimalardan iborat?	Qissa janri va uning o‘rta epik shaklligi. ("Jamila" qissasi misolida)	Klassitsizm metodining asosiy tamoyillari qanday?	Aruzda hijolar turlari (qisqa, uzun, o‘ta uzun) va ularning farqlamishi.	Realizm metodida "tipik sharoitda tipik xarakter" tamoyili qanday namoyon bo'ladi?
2	Adabiyotshunoslikda badiiy ijod jarayoni va uning o‘ziga xosligi.	Qissa janrining o‘zbek adabiyotidagi ilk namunalari va xususiyatlari.	Adabiy maktablar va ularning adabiy jarayondagi o‘rni.	Aruzning asosiy bahri va uning eng ko‘p qo‘llaniladigan turlari.	Tanqidiy realizm va uning jamiyat nuqsonlarini fosh etishdagi imkoniyatlari.
3	Adabiyotshunoslikda badiiy idrok tushunchasi va uning mohiyati.	Roman janri va uning yirik epik shaklligi.	Adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi va adabiy tanqid birligi.	Romantizm ijodiy metodi va uning tamoyillari, unda romantik qahramon va hissiyot ustuvorligi.	"Muallif – matn – kitobxon" munosabatlari Abdulla Qahhor hikoyalarida qanday ko'rinadi?
4	Badiiy asarda shakl va mazmun tushunchalari va ularning asosiy tarkibiy qismlari.	O‘zbek romanchiligi taraqqiyotining asosiy bosqichlari.	Badiiy obrazlarning turlari va ularning vazifalari.	Sentimentalizm va uning inson kechinmalariga ustuvorlik berish xususiyati.	Qadimgi Sharq adabiyotshunosligida adabiy-tanqidiy qarashlarning sinkretik tabiati va uning keyingi taraqqiyotga ta’siri.
5	Badiiy asar mazmunini belgilovchi asosiy unsurlar: mavzu, g‘oya, muammo.	Lirik tur va uning subyektiv tabiati.	Badiiy asar mavzusi, g‘oyasi va muammosi.	Matnshunoslik va manbashunoslikning ilmiy ahamiyati.	Shakl va mazmun originalligi hamda ularning badiiy asar estetik qiymatini belgilashdagi o‘rni.
6	Badiiy asarda pafos (emotsional yo‘nalish) va uning turlari.	Lirik turning asosiy janrlari va ularning badiiyati.	Xarakterlararo konflikt va uning syujetdagi o‘rni.	Inson obrazini yaratishda ichki monolog va portret roli.	Badiiy asarda shaklning mazmunga nisbatan faol harakatlantiruvchi roli va shakliy yangilanishlar sabablari.
7	Badiiy obraz tushunchasining ta’rifi va uning hayotiy prototipdan farqli jihatlari.	Dramatik turning asosiy xususiyatlari va sahna.	Rivoya, tavsif va dialogning badiiy asar kompozitsiyasida tutgan o‘rni va vazifalarini tushuntiring.	Shakl va mazmun muvofiqligi badiiylik mezoni sifatida.	Badiiy obrazda umumiylik (tipiklik) va xususiylik (individuallik) dialektikasini asoslang (O'tkan kunlar" romani misolida).
8	Badiiy obrazlilik tushunchasi va uning badiiy adabiyotdagi asosiy belgilari.	Dramatik asarda remarka va uning sahna talqinidagi o‘rni.	Fabula va syujet o‘rtasidagi farqlar.	Ichki-psixologik konflikt va uning qahramon ruhiyatidagi o‘rni.	Badiiy obrazning shartli-ramziy va fantastik turlari hamda ularning estetik-falsafiy yuklamasi.
9	Badiiy prototip tushunchasi va uning obrazga aylanish mexanizmi.	Adabiy tur kompozitsiyasining farqli belgilar.	Mumtoz poetikada badiiy san'atlar tasnifi	Tashqi va ichki kompozitsiya mutanosibligi.	Badiiy vaqt va kompozitsiya: voqealar xronologiyasi va ularning syujetdan tashqari elementlar bilan bog‘lanishi.
10	Syujet tushunchasi va uning asosiy komponentlari (ekspozitsiya, tugun, rivojlanish, kulminatsiya, yechim).	Badiiy til va umumxalq adabiy tili munosabati.	Hikoya syujetining markazida faqat bitta markaziy voqea va bitta yetakchi qahramon turishining badiiy asar ta'sirchanligini oshirishdagi rolini tushuntiring.	Syujet qurilishining turlari (xronologik, konsentrik, aralash) asar g‘oyasini va qahramonlar xarakterini ochib berishda qanday ahamiyatga ega?	Badiiy asarda syujet chiziqlari taraqqiyoti va xarakterlar to‘qnashuvi nima sababdan aynan konfliktga tayanadi?
11	Fabula va syujet tushunchalari o‘rtasidagi asosiy farqlar.	Trop (ko‘chim) tushunchasi va uning turlari.	Qissaning hikoya va romandan farqli jihatlari.	Janr va tur tushunchalarining dialektikasi.	Liro-epik asarlar (doston, ballada, masal) va ularning ikki tur xususiyatlarini sintez qilishi.
12	Badiiy asarda prolog va epilogning kompozitsion vazifalari.	Mumtoz poetikada badiiy san’atlar tasnifi.	Romanning ko‘p tarmqli syujeti va konflikt tabiati.	Hikoya janrida badiiy detalning o'rni.	Adabiy janrlar sintetikasi va chegaralarning o‘zgaruvchanligi nazariyasi.
13	Adabiy turlar (epik, lirik, dramatik) va ularni ajratishning asosiy mezonlari.	Mumtoz she’riyatda qofiya tushunchasi.	Lirik qahramon va lirik kechinma tushunchalari.	Qissada qahramonlar tizimi va xarakter evolyutsiyasi.	Badiiy nutqda monologik va dialogik qurilmalarning semantik va kompozitsion imkoniyatlari.
14	Hikoya janri hamda uning epik turdagi o‘rni va xususiyatlari.	Barmoq (sillabik) she’r tizimi va uning badiiy ahamiyati.	Dramatik janrlar: tragediya, komediya, drama. Ularning o'zaro qiyosi.	Roman janri tipologiyasi (tarixiy, falsafiy, psixologik).	Badiiy tilning ifodaviyligi hamda tasviriyligi va ularning matn ta’sirchanligini oshirishdagi roli.
15	Tragediya janrining maqsadi va tragedik konflikt tushunchasi.	Aruz she’r tizimi va uning kelib chiqishi.	Lirik va dramatik asar kompozitsiyasining o‘ziga xosligi.	Lirik asarlarni janrlarga ajratish prinsiplari.	Aruz tizimidagi zihof hodisasi va uning vazn moslashuvchanligini ta’minlashdagi roli.

16	Badiiy til va adabiy til hamda umumxalq tili o‘rtasidagi munosabat.	Zamonaviy she’riyatda erkin she’r janrining o‘rni va funksiyasini izohlang.	Badiiy nutqning emotsional-ta’sirchanlik vazifalari.	Dramatik asarda ziddiyatlarning kuchayishi hamda voqealar yechimi.	O‘zbek she’riyatida vaznlar almashinuvi va ritmik-melodik izlanishlar evolyutsiyasi.
17	Dramatik asarda qahramonlar o‘rtasidagi ziddiyat va voqealar rivoji.	Ijodiy metod va adabiy oqim tushunchalari.	Badiiy matnda muallif nutqi va qahramonlar nutqining o‘zaro mutanosibligi hamda estetik vazifalari.	Doston va ballada janrlarida lirik hamda epik tasvir tamoyillarining uyg‘unlashuvi.	Modernizm va uning adabiy yo‘nalishlari (simvolizm, ekspressionizm, syurrealizm, ekzistensializm) estetikasi.
18	Badiiy adabiyotda tashbeh (o‘xshatish) san’ati va uning poetik tasviriylikni ta’minlashdagi o‘rni.	Adabiy jarayon tushunchasi va uning mohiyati.	Lafziy san’atlarning badiiy matndagi g‘oyaviy-estetik vazifalari hamda tajnis san’atining ko‘rinishi.	Hikoya va novella janrlarining o‘zaro o‘xshash hamda farqli nazariy-estetik belgilari.	O‘zbek va jahon adabiyotida postmodernizm tamoyillarining namoyon bo‘lishi va uning badiiy-estetik belgilari.
19	O‘zbek she’riyatida vazn va ularning she’rga musiqiylik bag‘ishlashdagi o‘rni.	Adabiyotshunoslikning uchta asosiy tarkibiy qismi (adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid) o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni izohlang.	She’rdagi ohangdorlikni ta’minlashda qofiya va radifning roli.	Badiiy asarlarda majoziy va ramziy tasvirlarning qahramon xarakterini ochishdagi o‘rni.	Badiiy matnni o‘rganishda tarixiy, biografik va psixologik tahlil usullari.
20	Dramada monolog va dialogning qahramon xarakterini ochib berishdagi o‘rni.	Badiiy asar syujeti va uning elementlari hamda kompozitsiya bilan bog‘liqligi.	Barmoq vaznida bo‘g‘inlar soni, turoq va pauza.	She’riyatda ma’naviy san’atlar: iyhom, tazod va tazmin san’atlarining matndagi g‘oyaviy-estetik vazifalari hamda ularning o‘ziga xosliklari.	Obrazda individuallik va tipiklik mutanosibligini asoslash.
21	Komediyada satirik va yumoristik kulgining namoyon bo‘lishi.	Badiiy asar unsurlari (syujet, kompozitsiya, obraz) o‘rtasidagi ichki bog‘liqlik hamda ularning asar yaxlitligini ta’minlashdagi roli.	Aruz tizimida qisqa, uzun va o‘ta uzun hijolarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularning ruknlarni hosil qilishdagi o‘rni.	Mumtoz qofiya turlarining badiiyati(muqayyad, mutlaq, raviy).	Shaklning mazmunga faol ta’siri va yangilanish mexanizmi.
22	Adabiy jarayon tushunchasi va uni belgilovchi asosiy omillar.	Nima uchun badiiy asarni tahlil qilishda shakl va mazmunni bir-biridan ayro holda qarash mumkin emas?	Erkin she’rning an’anaviy vaznlardan farqi.	Barmoq vaznida turoqlanish tizimi: sodda va qo‘shma vaznlarning shakllanishi hamda ularning she’r ritmiga ta’siri.	Konfliktning g‘oyaviy-estetik tabiati va rivojlanish bosqichlari.
23	Badiiy uslub tushunchasi va yozuvchi individualligining asarda namoyon bo‘lishi.	Badiiy asar shakliga kiruvchi kompozitsiya, syujet va til vositalarining o‘zaro bog‘liqligi.	Romantizm va realizm metodlarining farqli jihatlari.	Aruz tizimida juzv, rukn va bahr tushunchalarining ma’nosi hamda ularning vazn shakllanishidagi o‘rni.	Epik asarda zamon va makon (xronotop) ko‘lamining qahramon ruhiyati hamda umumiy g‘oyaviy-estetik mantiqqa bo‘ysundirilishi.
24	Adabiy an’ana va novatorlik tushunchalari.	Badiiy g‘oya va uning muallif konsepsiyasi bilan bog‘liqligi.	Badiiy matnda syujet unsurlarining o‘zaro mantiqiy bog‘liqligi hamda ularning qahramon xarakterini ochib berishdagi funksiyasi.	She’riy nutqda ritm, qofiya va radif qanday o‘zaro bog‘lanadi?	Syujetda voqealar qanday tartibda rivojlanadi va bu tartib asar ta’sirini qanday oshiradi?
25	Adabiyotshunoslik fanining amaliy va nazariy vazifalari.	Badiiy obrazlar tasnifi: epizodik, bosh, ramziy va fantastik obrazlar.	Adabiyotshunoslikning yordamchi sohalari (matnshunoslik, manbashunoslik, bibliografiya) va ularning tadqiqot jarayonidagi o‘rnini yoritib bering.	Modernizm va uning adabiy yo‘nalishlari estetikasi.	Ichki-psixologik konflikt qahramon obrazining rivojlanishini qanday belgilaydi?
26	Adabiyotshunoslik fanining metodologik asoslari va vazifalari.	Qahramon ruhiyatini yoritishda psixologik tahlil usullari (portret, peyzaj, ichki monolog).	Badiiy adabiyotda murakkab obraz konsepsiyasi.	Personaj nutqining tipologik xususiyatlari: monolog, muloqot va ichki nutqning qahramon ruhiyatini yoritishdagi psixologik imkoniyatlari	Hikoya janri poetikasi va unda lirik-dramatik unsurlar. (A.Qahhor hikoyalari misolida)
27	Badiiy obraz tushunchasining estetik mohiyati.	Badiiy asarda ijobiy obraz konsepsiyasi va uning g‘oyaviy-estetik vazifalari	Badiiy adabiyotda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning aks etishi va ularning estetik qiymati.	Adabiyotshunoslik fanining tarix, tilshunoslik, falsafa va estetika kabi turdosh fanlar bilan metodologik aloqadorligini tahlil qiling.	Qissa janri tipologiyasi hamda kompozitsion farqlari.
28	Badiiy obraz yaratishda detallarning o‘rni.	Badiiy asar kompozitsiyasi va uning syujetdan farqli hamda umumiy jihatlari.	Mazmunning shaklga va shaklning mazmunga muvofiqligi badiiyatning muhim mezonlari sifatida.	Adabiy-tanqidiy manbalar va badiiy matn bilan ishlashning metodologik prinsiplari.	Romanda davr va shaxs konsepsiyasi.

29	Shakl va mazmun tushunchalarining dialektik aloqasi.	Badiiy asarda salbiy obrazning g'oyaviy-estetik vazifasi va uning konseptual tabiati.	Badiiy vaqt va real vaqt o'rtasidagi farqlar va ularning matn qurilishiga ta'siri.	Badiiy asarda zamon (xronotop) va makon kategoriyalarining poetik vazifalari hamda shakllanish mexanizmlari.	Lirik turda voqelikning kechinma orqali aks etishi.
30	Badiiy asar shakl va mazmuni uyg'unligi tushunchasi.	Syujet turlari (xronologik, konsentrik, aralash) va ularning xususiyatlari.	Inson obrazi badiiy adabiyotning o'zagi sifatida: shaxs va jamiyat munosabatlarining aks etishi.	Tragediya janrining estetik mohiyati hamda badiiyati.	Dramatik matn poetikasi: dialog va monologlarning dramatizm hamda konflikt rivojini ta'minlashdagi roli.
31	Badiiy asarda konflikt tushunchasi va uning mohiyati.	Epik tur va uning asosiy janrlari (hikoya, qissa, roman) o'rtasidagi farqlar.	Badiiy obrazda individuallik va umumiylik mutanosibligi hamda uning obrazlar tizimini shakllantirishdagi o'rni.	Badiiy obrazning ratsional va emotsional birlik hamda polisemiya xususiyatlari.	Badiiy asarda muallif g'oyaviy niyatining kompozitsion qurilishda aks etishi hamda qismlar mutanosibligining matn yaxlitligini ta'minlashdagi roli.
32	Konflikt va syujet harakatining o'zaro aloqadorligi.	Qissa janrining hikoya va romandan ajralib turuvchi arxitektonik xususiyatlari.	Badiiy obrazning estetik ideali hamda muallif qarashlarini ifodalashdagi roli.	Inson obrazini yaratishda nutqiy xarakteristika va xatti-harakatlar portretining o'rni.	Badiiy til va adabiy til munosabatining nazariy o'rni.
33	Badiiy asar kompozitsiyasi va uning tuzilishi.	Komediya janri va uning turlari (hajviy, yumoristik, satirik).	Konflikt tushunchasi va uning turlari (xarakterlararo, qahramon va muhit, ichki-psixologik).	Epik nutqning kompozitsion shakllari (rivoya, tavsif, dialog) va ularning poetik vazifalari.	Tasvir va ifoda vositalarining matn semantikasidagi roli.
34	Kompozitsion vositalardan peyzaj va portretning tutgan o'rni.	Badiiy nutq shakllari: nasriy (sochma) va she'riy (tizma) nutqning farqli jihatlari.	Kulminatsiya va uning asardagi tugun hamda yechimni bog'lovchi estetik markazligi.	Ichki (psixologik) konflikt va uning qahramon ruhiy ziddiyatlarini ochishdagi roli.	Mumtoz badiiy san'atlarning shartli-ramziy estetikasi.
35	Syujet va uning asosiy komponentlari.	Metonimiya va sinekdoha ko'chimlarining hosil bo'lish mexanizmi.	Lirik turning spesifik xususiyatlari, lirik qahramon va lirik kechinma tushunchalari.	Dramatik turning o'ziga xosligi, drama va teatr munosabati hamda dramatik janrlar tasnifi.	Mumtoz poetikada qofiyaning ritmik va semantik roli.
36	Syujet komponentlarining emotsional-falsafiy vazifalari.	Jonlantirish (tashxis) va intiqoqlik vositalarining ko'chim sifatidagi roli.	Roman janrining tipologiyasi (tarixiy, psixologik, maishiy, falsafiy) va evolyutsiyasi.	Lirik asarlarni janrlarga ajratish prinsiplari hamda hozirgi she'riyatdagi janrlar.	Barmoq va aruz tizimlarining o'zaro ta'siri va sintezi.
37	Adabiy turlar va janrlar haqida tushuncha.	Barmoq she'r tizimi, uning milliy xarakteri, turoq va bo'g'inlar tartibi.	Dramatik asarda xarakterlar toqnashuvi va g'oyaviy konfliktning syujet rivoji hamda pyesa kulminatsiyasini shakllantirishdagi o'rni.	Trop (ko'chim) tushunchasi va uning turlari (metafora, metonimiya, sinekdoha, epitet)ning o'rni.	Aruz vaznining turkiy tillar fonetikasiga moslashuv qonuniyatlari.
38	Adabiy turlar tasnifi va ularning o'zaro farqlanish tamoyillari.	Sillabik she'r tizimi (barmoq) va unda sodda hamda qo'shma vaznlarning farqi.	Badiiy nutqda so'z tartibining o'zgarishi (inversiya) va takroriy usullarning muallif g'oyaviy-estetik niyatini ochib berishdagi roli.	Ramz (simvol) va majoz (allegoriya) tushunchalarining semantik sig'imi.	Badiiy tasvirlashda tashbeh (o'xshatish) strukturasi va uning muallif g'oyaviy-estetik niyatini ochib berishdagi roli.
39	Hikoya janrining ta'rifi va hajmiy chegarasi.	Barmoq vaznida turoqlanish tartibi va uning pauza bilan bog'liqligi.	Epitet (sifatlash) va uning oddiy sifatdan farq qiluvchi estetik va badiiy vazifalari.	Erkin she'r (verlibr) va uning ritmik-intonatsion qurilishi, an'anaviy vaznlardan farqi.	Postmodernizm va uning intertekstuallik prinsiplari.
40	Hikoya janrida lirik kechinmaning aks etishi.	Ijodiy metod va adabiy oqim tushunchalari o'rtasidagi farq hamda umumiylik.	Aruz she'r tizimi, unda ritmik bo'laklar (harf, juzv, rukn, bahr) va asliy hamda far'iy bahrlar.	Sillabo-tonik she'r tizimida urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar tartibi hamda ikki va uch bo'g'inli o'lchovlarning ritm hosil qilishdagi o'rni.	Zamonaviy o'zbek adabiy jarayoni tendensiyalari bahosi.